ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

IMFAKTOR PAGES

# JOCAA

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

# Journal of Culture and Art

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

Volume I, Issue 4
JUNE | 2023



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

# ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-4

# JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ – 2023

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 4 (2023) DOI http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-4

| | |
|---|---|
| **БОШ МУҲАРРИР:** | |
| **Халикулова Гўзал Эркиновна** | Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди |
| **МАСЪУЛ МУҲАРРИР:** | |
| **Меликўзиев Иқбол Мамасодиқович** | Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) |
| **ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:** | |
| **Касимов Нозим Козимович** | Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор |
| **Ходжаметова Гулчира Илишевна** | Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор |
| **Абдувоҳидов Фахриддин Мелигалиевич** | Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) |
| **Кадиров Рамз Турабович** | Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти |
| **Умаров Мамур Боташикович** | Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди |
| **Худоев Ғани Муҳаммадович** | Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) |
| **Бердиханова Шахида Нурлыбаевна** | Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти "Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси" кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) |
| **Дўсанов Раҳимжон Раимқулович** | Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи |
| **Суннатиллаев Асатилло Суннатович** | Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD) |

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни **№ 065356**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

**Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка:** Абдураҳмон Хасанов

**Таҳририят манзили:** https://imfaktor.uz, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

**Телефон номер:** +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

**© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.**

**© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.**

ISSN: 2181-4562
www.imfaktor.uz

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**DJUMABAYEV Murat Kenesbayvich**
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali talaba
*https://doi.org/10.5281/zenodo.8081087*

## QORAQALPOQ DAVLAT YOSH TOMOSHABINLAR TEATRI

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrining tarixi, yurtimizda san'at va madaniyat sohasida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan islohatlar, milliy va jahon dramaturgiyasiga oid spektakllar va teatr san'atining rivojlanishi haqida so'z yuritiladi va Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrining yoshlar uchun, ahamiyati haqida atroflicha bilib olamiz.

**Kalit so'zlar:** teatr, aktyor, rejissyor, dramaturg, repertuar, spektakl, yosh tomoshabin, yosh tomoshabinlar teatri, milliy va jahon dramaturgiyasi.

**ДЖУМАБАЕВ Мурат Кенесбайвич**
*Узбекский государственный институт искусств и культуры*
*Нукус филиал студент*

## КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕАТР ЮНОГО ЗРИТЕЛЯ

**АННОТАЦИЯ**

В этой статье представлена история Каракалпакского государственного театра юного зрителя, искусство в нашей стране и о реформах, которые предполагается осуществить в сфере культуры, спектаклях по национальной и мировой драматургии и развитии театрального искусства, и мы подробно узнаем о значении Каракалпакского государственного театра юного зрителя для молодежи.

**Ключевые слова:** театр, актер, режиссер, драматург, репертуар, спектакль, юный зритель, театр юного зрителя, национальная и мировая драматургия.

**DJUMABAYEV Murat Kenesbayvich**
*Uzbekistan State Institute of Arts and culture*
*Nukus Branch student*

## KARAKALPAK STATE THEATER OF YOUNG SPECTATORS

**ANNOTATION**
In this article, the history of the Karakalpak State Theater of young spectators, art in our country and the reforms envisaged to be implemented in the field of culture, performances on national and world drama and the development of theatrical art will be discussed, and we will learn in detail about the importance of the Karakalpak state young audience theater for young people.
**Keywords:** theater, actor, director, playwright, repertoire, performance, young spectator, young audience Theatre, National and world dramaturgy.

2023 yil 1 yanvar holatiga koʻra, mamlakatimizda amal qilayotgan teatrlar soni 50 tani tashkil etdi. Oʻz janrlari boʻyicha teatrlar quyidagicha taqsimlanadi:
- dramatik teatrlar – 24,
- qoʻgʻirchoq teatrlari – 11,
- musiqa teatrlari – 10,
- yosh tomoshabinlar teatri – 4,
- opera va balet teatri – 1 ta.

Bu shundan dalolatki yurtimizda san’at va madaniyat sohalarining rivojlanishga yetarlicha imkoniyatlar yaratilib berilmoqda [1].

Davlatimiz rahbarining: “Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi” degan gaplari va “2022-yil 2-fevraldagi madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirishga doir qoʻchimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi” qarori yurtmizdagi butun san’at va madaniyat sohasi fidoyilariga katta ishoch va imkoniyatlar eshigini ochdi. Shunday imkoniyatlardan samarali foydalanayotganlar qatorida qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrini misol keltirishimiz mumkin.

Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri – yoshlar va oʻsmirlar uchun moʻljallangan teatr. 1978-yil sentabrda "Kechikkan bahor" (K.Rahmonov) spektakli bilan ochilgan.Teatrning dastlabki rahbari B.Matjanov va teatr bosh rejissyori sifatida N.Ańsatboyev faoliyat yuritgan.

Teatrning ijodiy jamoasini, asosan, Toshkent teatr va rassomlik san’ati institutini tugatib borgan yoshlar (J.Abillayev, J. Jumanov, A.Navroʻzova, D.Keunimjayev, N.Xoʻjamurodov va boshqalar) va Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatridan oʻtgan S.Ollomurodova, X.Saparov, M.Matchonov, S. Oʻtepbergenov, G.Dushimov, B.Qaipovlar tashkil etdi [2].

Teatr repertuarining shakllanishi, janr va mavzu nuqtai nazaridan boy va xilma-xilligini ta’minlashda mahalliy dramaturglardan K.Rahmonov, S.Jumagulov, S.Xoʻjaniyozov, Q.Matmurodov va boshqalarning xizmatlari katta boʻldi. Shu yillar davomida teatr repertuari "Xeops piramidasi" (T.Qaipbergenov), "Mening doʻstlarim" (S.Xoʻjaniyozov), "Nukus afsonasi" (T.Seytjonov), "Toʻqqiz bemaza toʻngʻildoq va bir uddaburon chinqildoq" (K.Rahmonov), "Suyunchi" (P. Aytmurodov), "Pitoniyga sayohat" (J. Xoʻjanov), "Odamlar nega ayniydi" (S.Jumaǵulov), kabi zamonaviy va afsonaviy, doston va xalq ertaklari asosida yaratilgan sermazmun, tomoshabop spektakllar bilan boyib bordi [3].

Teatrga turli yillarda rahbarlik qilib kelgan N.Ansatboyev, R.To‘raniyozov, teatr rassomlaridan B.Nurimbetov, L.Kazachok, N.Ashbekov va boshqa qoraqalpoq yoshlarini qardosh xalqlar va jahon dramaturgiyasining durdonalari bilan tanishtirib bordilar: "Kuzning birinchi kuni" (O‘.Umarbekov), "Ota taqdiri" (B.Ja-kiyev), "Bolaga ota kerak" (I.Lazutin), "Ikki boyga bir malay" (K.Goldo-ni), "Skapenning nayranglari" (J.Molyer), "Buratino" (A.Tolstoy), "Etikli mushuk" (Sh.Pyero) spektakllari shular qatoridan.

Teatr jamoasi 1990-yili Toshkentda o‘tkazilgan birinchi hududiy O‘rta Osiyo va Qozog‘iston yosh tomoshabinlar teatrlari, 1998-yili Toshkentda o‘tkazilgan birinchi xalqaro “Humo”, 2007-yili Turkmanistonning Ashxobod shahrida o‘tkazilgan Folklor va milliy teatrlar xalqaro festivallarida, Misrda o‘tkazilgan teatr festivallarida muvaffaqiyatli ishtirok etip kelgan.

A.Navro‘zova, I.Aybatov, Q.Kubesova, A.Xudoynazarov, A.Ansatboyev, D.Keunimjayev, J.Abdimov, L.Xoliqnazarova, K.Shomurodovalar teatrning yetakchi aktyorlaridir. Qirq yildan ko‘proq tarixni o‘z ichiga olgan qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri bugungi kunda turli janrdagi spektakllarni saxnalashtirib, tomoshabinlar ko‘nglini ko‘tarib kelmoqda. Teatrning qirqinchi mavsum ochilishi juda katta yangiliklar bilan boshlandi. Ya’ni 2018 yil 25 avgust kuni Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri yangi binosining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi**.**

Teatrning ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, san’at va madaniyat arboblari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar. Marosim davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovg‘asi - “Damas” avtomashinasi va zamonaviy videokamera teatr jamoasiga tantanali ravishda topshirildi [4].

Davlatimiz tomonidan ko‘rsatilgan bunday e’tibor va yaratilib berilayotgan imkoniyatlarni soha vakillariga bo‘lgan yuksak hurmat, shuningdek yurtimizda san’at va madaniyat rivojlanishida ko‘zda tutilgan qonunlarning amaldagi isboti deya hisoblash mumkin.

So‘nggi yillarda teatrning repertuar rejasi ichlab chiqilib, bu bo‘yicha keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirildi. Misol qilib aytadigan bo‘lsak 2019-yilda B.Aytmuratovning “Mo‘ynoqta baxtning tonglari otdi” dramasi yosh rejissyor O‘.Bekturganov tomonidan saxnalashtirildi. Dzuindzi Kinositoning “Turna pati” pyessasi rejissyor A.Qudaynazarov tomonidan teatr saxnasiga qo‘yildi. “Vatan tuprog‘i” (A.Sultanov), “Uch erinchoq”, “Sexrli don” (R.Piyazova), “Asrga tatigulik kun” (Ch.Aytmatov), “Aleko” spektakllari ham shular qatoridan.

Yurtimizda teatr san’atining rivojlanishida harbir teatr, madaniyat muassasalarining va ijod ahlining hissasi beqiyos. Mamlakatimiz ular uchun qo‘shqanot bo‘lib qo‘llab quvvatlashi esa yuksaklarga parvoz qilishiga yordam berishi shubhasiz.

## IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning  Madaniyat va San'at sohasini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi qarori.02.02.2022 // URL: https://lex.uz/uz/docs/-5849580

2.Teshavoy Bayandiyev. Qoraqalpogʻiston yosh tomoshabinlar teatri. // URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoraqalpog%CA%BBiston_yosh_tomoshabinlar_teatri

3. **Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. 07.08.2018. //URL:** https://ict.xabar.uz/

4.Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrining rasmiy sayti. //URL: https://kktyuz.uz/uz/

5. Dunyo Axborot Agentligi. 14.04.2022.//URL: https://dunyo.info/uz

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

# ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-4

# JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-4

**«Маданият ва санъат»** электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

**Муассис:** «**IMFAKTOR Pages**» масъулияти чекланган жамияти.

**Таҳририят манзили**: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

**Телефон номер**: +99894-410 11 55

**Эл. почта**: tahririyat@imfaktor.uz

**Веб-сайт**: www.imfaktor.uz